

O'ZBEK TILI GRAMMATIKASIDA GAP BO'LAKLARINI ANIQLASHNING NOODATIY USULI

Toshkent viloyati Angren shahar 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi: R. Xayrullayeva

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tuman 85-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi: G. Meyliyeva

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbek tili grammatikasida gap bo'laklarini aniqlashning noodatiy usuli haqida bo'lib umumiy tushuncha va metodlar qisqacha talqinda keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tobe qism, gap bo'laklari, milliy ong va tafakkurning ifodasi, O'zbek tili grammatikasining shakllanishi.

Har qaysi xalqning ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirishning muhim vositasi bo'ladigan ijtimoiy hodisa- bu uning ona tilidir. Zero, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi avlodlar o'rtasidagi ruhiy, ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli, eng avvalo, o'zbek tili grammatikasining to'g'ri va ravon o'qitilishiga katta e'tibor qaratilishi lozimdir. O'zbek tili grammatikasining shakllanishida gap bo'laklarining o'rni ham muhimdir.

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi gap bo'lagi deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular o'rtasidagi sintaktik aloqadir.

Bu usul 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Gapdagi har bir so'zni o'zi mazmunan bog'langan so'z bilan yozib chiqiladi. Bu bosqich gapdagi tobe bog'lanishlarni aniqlab chiqish bosqichi bo'ladi. Odatda, tobe bog'lanishlarni aniqlash, gapning oxiridan, kesimdan boshlanadi. Bu usulda esa biz gapning boshidagi birinchi gap bo'lagi hisoblanuvchi so'zdan boshlaymiz.

2. Bu bosqichda har bir tobe bog'lanishdagi tobe va hokim so'zning qanday usul bilan bog'langani aniqlanadi. Ya'ni moslashuv, boshqaruv, bitishuv usullari ajratiladi.

3. Bu bosqichda gap bo'laklari aniqlanadi. Gap bo'laklarini bog'lanishlarga qarab belgilash muhim hisoblanadi. Ya'ni gapdagi har bir bo'lak o'zi birikkan so'zga qanday yo'l bilan bog'langani, hokim so'zning turkumi va tobe so'zga qanday ma'no ustunligi muhim hisoblanadi. Endi u bosqichlar fikrlarni gaplar misolida isbotlaymiz.

1. Anhor bo'yidagi hovlilarning ochiq eshiklaridan ozoda supalar, namozshomgullar ko'rinadi.

a) anhor bo'yidagi hovlilar (bitishuv)

- b) hovlilarning eshiklari (moslashuv)
- d) eshiklaridan ko'rinmoq (boshqaruv)
- e) ozoda supalar (bitishuv)
- f) supalar ko'rindi (moslashuv)
- g) sadarayhon ko'rindi (moslashuv)
- h) namozshomgullar ko'rindi(moslashuv)

2. Bog'lanish usullari aniqlanayotganda, asosan, tobe qism oxiridagi vositaga e'tibor qilish muhim omil hisoblanadi. Ba'zan esa, hokim qismdagi vosita ham ahamiyat kasb etadi.

Tobe bog'lanishning 3 usulini eslatib o'tamiz.

1. Moslashuv:

- a) eganing kesimga bog'lanishi
- b) tobe so'zning qaratqich kelishigida, hokim so'zning egalik qo'shimchasi bilan kelishi.

Bu 2 usulning moslashuv deyilishining o'ziga xos sabablari mavjud.

Ega va kesimning moslashuvi. Bunda kesimning tarkibidagi shaxs-son ifodalovchi qo'shimcha bilan tobe qism, ya'ni eganing shaxsi va soni mos bo'lgani uchun moslashuv deyiladi.

M: Men yozdim. Men 1 shaxs, birlikning kesim tarkibidagi \-m\ shaxs-son qo'shimchasi ham “men” so'ziga shaxs va sonda mos.

2. Moslashuv: so'z birikmasi moslashuvi. Bu bog'lanishning moslashuv deyilish sababi bu bog'lanishda ham o'ziga xos moslikning yuzaga chiqishidir.

M: Mening kitobim.

Bunda ham mening kitobim so'zidagi egalik qo'shimchasining 1-shaxs birlik ifodalayotgani va tobe qismning 1-shaxs birlikdagi kishilik olmoshi bilan kelishi moslashuvni yuzaga keltirmoqda.

Boshqaruv

Bu bog'lanish usulida tobe qismdagi bog'lovchi vositalar muhim o'ringa ega. Agar kelishiklar jadvalini ko'z o'ngimizga keltirib ko'rsak, bosh kelishik va qaratqich kelishigi boshqaruvli bog'lanishda ishtirok etmaydi. Qolgan kelishiklar: tushum, jo'nalish o'rin-payt, chiqish qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchilar boshqaruvli bog'lanishning asosi hisoblanadi. Ko'rinadiki, boshqaruv 2 xil ko'rinishda bo'ladi:

- 1. Kelishikli boshqaruv
- 2. Ko'makchili boshqaruv

Bunda har 2 vositaning ham faqat tobe qism tarkibida kelishi muhim hisoblanadi.

M: 1) vazifani bajarmoq

2) uyga ketmoq

3) shaharda yashamoq

4) kitobdan ko'chirmoq

kelishikli boshqaruv

- 1) Vatan haqida suhbatlashmoq
2) Uxlashdan oldin takrorlamoq
- Ko'makchili boshqaruv

Bitishuv

Bu bog'lanish turida tobe va hokim qismdagi maxsus ko'rsatgichga ega vositalar muhim o'rin tutmaydi. Bitishuv uchun eng asosiy jihat bu mazmun va ohangdir.

M: a) tonggi shabada

b) kulib qaramoq

Eslatma: tobe qism tarkibida so'z yasovchi lug'aviy shakl yasovchi vositalar bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi gapning tobe bog'lanishlarini aniqlaymiz.

Bu voqeani zimdan kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu imo-ishoraning sababini so'rabdilar.

- a) Bu voqea (bitishuv)
- b) Voqeani kuzatib turmoq (boshqaruv)
- c) Kuzatib turgan shogirdlar (bitishuv)
- d) Navoiyning shogirdlari (moslashuv)
- e) Shogirdlari so'rab (bitishuv)
- f) Bu imo-ishora (bitishuv)
- g) Imo-ishoraning sababi (moslashuv)
- h) Sababini so'ramoq (boshqaruv)

3. Bosqich

Bu asosiy bosqich bo'lib, bunda ayrim jihatlarni xotirada yod olish kerak bo'ladi. Bu voqea bitishuv bog'lanishlarda hokim qismning qanday turkum ekani tobe qismning qanday gap bo'lagi bo'lishini belgilaydi.

Bu voqea hokim qism ot turkumiga mansub, demak, tobe qism aniqlovchi voqeani kuzatmoq (boshqaruv)

Boshqaruvda hokim qism ahamiyatli hisoblanmaydi. Unda 2xil tomondan yondoshib qaraladi. Birinchisi tobe qismda shaxs-narsalik ma'nosi ustunmi yoki o'rinpayt, sabab, maqsaddan birimi. Shunga ko'ra tobe qismning to'ldiruvchi yoki holligi aniqlanadi. Voqeani kuzatmoq-voqeani to'ldiruvchi.

Ko'rinadiki, bitishuvli bog'lanishda hokim qismning qaysi so'z turkumiga mansubligi muhim bo'lsa, boshqaruvda tobe qismning anglatgan ma'nosi muhim.

Bitishuvda tobe yo aniqlovchi yoki hol, boshqaruvda tobe qism yoki to'ldiruvchi, yoki hol kuzatib turgan shogirdlar (bitishuv)hokim qism ot, demak, aniqlovchi.

Gap bo'laklarini mukammal o'rganish, o'quvchi nutqida to'g'ri va ravon gap tuzish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa uning fikrlash qobiliyatini o'stirib, so'zlash madaniyatini oshiradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. T a'lim taraqqiyoti jurnali 1-maxsus son. U m um iy o 'rta ta'limning davlat ta'lim standard va o'quv dasturi (Ona tili).—T.: 1999.
2. TOSHTEMIROVA M. Ona tili darslarida o 'quvchilaming nutq madaniyatini shakllantirish. T a'lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. « O 'zbek tili» Doimiy Anjumani beshinchi yig'ilish tezislari to'plami (1999-yil 29-30aprel). — T.: «Sharq», 1999.
3. XUDOYBERGANOVA M. Uchinchi sinfda ona tili darslari.— T.: 1988.
4. XUDOYBERGANOVA M. Ikkinchi sinfda ona tili darslari. — T.: 1977.
5. XO 'JAYEV A. Izohli metodikaning ba'zi masalalari. — T.:1968.